

BOSHLANG‘ICH 1-SINF O‘QISH SAVODXONLIGI
DARSIDA 5E MODELINI QO‘LLASH

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi
1-kurs magistranti **L.B.Irisova**
E-mail: lobarislomova05@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich 1-sinf o‘qish savodxonligi darsida 5E modelining qanday qo‘llanilishi ko‘rsatilgan. Ushbu darslikdagi “Kitob-bilim bulog‘i, o‘quvchining o‘rtog‘i” mavzusi misolida na’muna keltirilgan.

Kalit so‘zlar: 5E modeli, o‘qish savodxonligi, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, chapak chal, osmon, kitob, durdona, maqsad, amaliyot.

Аннотация: В этой статье показано, как использовать модель 5E на уроке читательской грамотности в начальных классах. В данном учебнике приведен пример темы "Книга - источник знаний, товарищ ученика."

Ключевые слова: модель 5E, грамотность чтения, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, аплодисменты, небо, книга, шедевр, цель, практика.

Annotation: This article shows how to apply the 5E model in an elementary 1st grade reading literacy lesson. This textbook provides an example of the topic "Book is the source of knowledge, the student's friend."

Keywords: 5E model, reading literacy, engage, explore, explain, elaborate, evaluate, applause, sky, book, masterpiece, goal, practice.

5E modeli ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undovchi, ularning bilimini kengaytirish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvdir. Bu model asosan ilmiy tadqiqotga asoslangan fanlarni o‘rgatishda qo‘llaniladi, ammo boshqa fanlar uchun ham moslash mumkin.

5E modeli quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1.Engage (jalb qilish)

Bu bosqichda bolalarni darsga qiziqtirish va mavjud bilimlarni aniqlash, ya’ni o‘quvchi ong ostidagi bilimlarni yuzaga chiqarish asosiy maqsaddir.

Maqsad: O‘quvchilarni mavzuga qiziqtirish hamda ularning diqqat e’tiborini o‘rganilayotgan bilimga qaratish.

Amaliyot: Savol-javob metodini hosil qilish, ochiq savollar berish. Qiziqrarli videoni ko‘rsatish. Mavzuga oid muammoni muhokama qilish.

2.Explore (o‘rganish)

O‘quvchilar o‘zlari guruh bo‘lib, yoki yakka holda mavzuni tushunishga harakat

qiladi. Bu bosqichda ular o‘qituvchi o‘rtaga tashlagan muammoga yechim izlaydilar yoki savollarga yakka holda o‘z ong osti fikrlarini bildiradilar.

Maqsad: Tadqiqot va kuzatuv orqali yangi bilimlarni bolalarning o‘zlari topsin.

Amaliyot: Guruh bilan muammoni muhokama qilgan holda yechim izlasin. O‘quv darsligidan foydalanib ma’lumotlarni tahlil qilsin. O‘yin yoki loyihalar orqali bilimlarni o‘rgansin.

3.Explain (tushuntirish)

O‘quvchilar o‘rtaga qo‘yilgan muammoga o‘z yechimlarini aytadi va tushuntiradilar, o‘qituvchi esa ularning yechimlariga aniqlik kiritadi hamda to‘ldiradi.

Maqsad: O‘rganilgan bilimlarni so‘z bilan ifodalash va tushuntirish, ya’ni o‘quvchilarga yetkazib berish.

Amaliyot: Dars mavzusini tushuntirish va asosiy atamalarni tanishtirish.

4.Elaborate (takomillashtirish)

O‘rganilgan bilimlarni chuqurlashtirish hamda ularni amalda qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Maqsad: Yangi bilimlarni turli ko‘rinishda qo‘llash orqali ularni mustahkamlash.

Amaliyot: O‘rganilgan bilimga asoslangan mashqlarni yechish, qo‘sishma topshiriqlar bajarish. Real hayotga oid vaziyatlar bilan bog‘liq topshiriqlar berish. Yangiliklar yaratish (masalan, o‘qish savodxonligi darsida ijodkorlik qilish).

5.Evaluate (baholash)

O‘quvchilarning mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklari aniqlanadi.

Maqsad: O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash.

Amaliyot: Testlar, savollar orqali bilimini tekshirish. Pedagog o‘z portfolio yoki taqdimotlarini baholash, o‘zini-o‘zi baholash hamda muhokama qilish.

Mavzu: Kitob – bilim bulog‘i,

O‘quvchining o‘rtog‘i

1.Engage. O‘quvchilarga “Inson kitob bilan, kitob inson bilan tirik” video roligi qo‘yib beriladi. (2 daqiqalik) O‘quvchilar videoni ko‘rib bo‘lganidan so‘ng, ularga quyidagicha savol beriladi: Bu video nima haqida ekan? Nega “Inson kitob bilan, kitob inson bilan tirik” deb yozilyapti?

2.Explore. Bu savollarga javob toppish uchun uch guruhga bo‘linadi va ularga uch daqiqa vaqt beriladi.

3.Explain. Belgilangan vaqt o‘tgandan so‘ng o‘qituvchi guruhi javobini tinglaydi va ularning javoblariga aniqlik kiritadi, topishmoq keltirilib, bugungi mavzu nima haqda ekanligini o‘quvchilardan so‘raydi, ular topishmoqning javobi orqali mavzu nomini topadilar, bugungi mavzuni yoritishga o‘tiladi. Mavzuni tushuntirishda kitob haqida ma’lumot beriladi, Po‘lat Mo‘minning “Kitob – hammabop” she’ri ifodali aytib beriladi hamda uning ma’no mazmuni yoritiladi. Integratsiyalash orqali aynan

shu sinf o‘quvchilari o‘tayotgan hamma fan nimalar haqida ma’lumot berishi qisqacha aytib o‘tiladi, masalan, matematikada hisoblash, tabiiy fanda yashab turgan olamimiz, tarbiya fanida odob-axloq, texnologiyada turli xil narsalarni yasash, jismoniy tarbiyada sport o‘yinlari va h.k. (15 daqiqa)

4.Elaborate. Bu bosqichda innovatsion metoddan foydalanamiz, ya’ni

“O‘YNA, CHAPAK CHAL

O‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi va o‘qituvchi tomonidan kitob haqida qo‘sinqo‘yiladi. O‘quvchilar joylarida tik turgan holda qo‘llarini yuqoriga qilib, shamol holatida harakatlantirib, chapak chalib raqsga tushadilar. Bu vaqtida o‘qituvchi har bir guruhga (kitobli konvert yasalgan bo‘lib, uning ichida o‘quvchilarga mavzuga doir mantiqiy, tanqidiy hamda kreativ fikrlashlariga doir savollar tuzilgan varaqchalar mavjud) konvertlarini yirtib, ularga savollarini tarqatadi. Bu savollarga guruh bo‘lib javob topadilar. Hamma o‘z savolini olib bo‘lganidan so‘ng qo‘sinq o‘chadi va ular savollariga javob topish jarayoniga kirishadilar. Savolga javob noto‘g‘ri berilsa, u o‘quvchlarining jamoasi jazo sifatida o‘rnidan darhol turib, bir chapak chalib o‘tirishadi. Bu metodning foydalari: bolalar uchun quvnoq daqiqa, aql charxlanishi, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasi, jismoniy faollik. Bu bosqichda bundan oldingi o‘tilgan mavzular ham integratsiya qilinadi. (15 daqiqa)

Na’muna: Savollar.

1 – guruh uchun

1. Durdona so‘zining ma’nosi nima va shu so‘zga bitta og‘zaki gap tuzing.
2. Sheridan “kitob” so‘ziga qofiyadosh so‘zni toping va o‘sha so‘zga bitta gap tuzing.
3. Faraz qiling, siz o‘quvchilar mobodo asar yozsangiz nima haqda yozgan bo‘lardingiz. Har biringiz o‘z fikringizni aytинг.

2 – guruh uchun

1. Doston - ?
2. She’rdan “osmon” so‘ziga qofiyadosh so‘zni toping va o‘sha so‘zga bitta gap tuzing.
3. Faraz qiling, siz o‘quvchilar mobodo asar yozsangiz nima haqda yozgan bo‘lardingiz. Har biringiz o‘z fikringizni aytинг.

5.Evaluate. (5 daqiqa) O‘quvchilarning bugungi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlash hamda baholash uchun beshta savoldan iborat test tarqatiladi. Ularning bajargan testiga qarab nimada bo’shliq borligi aniqlanadi. Testni pedagog mavzuni tushuntirgandagi ma’lumotlaridan foydalanib tuzadi. Bo’shliqlar keyingi darsda o‘tilgan mavzuni takrorlash qismida to‘ldiriladi. O‘qituvchi o‘zini-o‘zi darsdan so‘ng baholaydi. U o‘zini baholashi orqali o‘zidagi kamchiliklarni to‘ldirib boradi.

5E modeli o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Shu bilan birga, ular mustaqil o‘rganishga va tanqidiy fikrlashga o‘rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev A, Karimova G (2022). Improving the process of school sports of Learning and Academic Teaching.
2. Shodiyev, Sh., Qodirova, M. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi – O‘qish savodxonligi va boshlang‘ich ta’lim metodlari haqida asosiy darsliklardan biri.
3. To‘xtasinova, M. Boshlang‘ich ta’limda o‘qish va yozuv o‘rgatish metodikasi – Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga savod o‘rgatish metodlari yoritilgan.
4. www.google.com
5. www.edutopia.org